

Uzbekistan Airways tomonidan Singapurda O‘zbekistonning sayyohlik saloyihati taqdimoti tashkil etildi

2024 16 Oktabr

Singapurda O‘zbekistonning sayyohlik salohiyati va Uzbekistan Airways aviatsiya imkoniyatlari taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Tadbir aviakompaniyaning Kuala-Lumpurdagi vakolatxonasi tomonidan yo‘lovchi tashuvlari bo‘yicha sotuv agenti “Ansync Global” bilan hamkorlikda tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasining Singapurdagi elchixonasi vakillari taqdimotning faxriy mehmoni sifatida ishtirok etdilar.







